

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

8-son (avgust 2025)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2025

Ochilov Ulug‘bek Sayfulloyevich (dotsent, f.f.f.d. (PhD), Buxoro davlat universiteti; elnurbeast@gmail.com)
**NAZAR ESHONQULNING «MAYMUN YETAKLAGAN ODAM» VA «OZOD QUSHLAR»
HIKOYALARIDA MAGIK REALIZM**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Nazar Eshonqulning «Maymun yetaklagan odam» va «Ozod qushlar» hikoyalarida magik realizmning namoyon bo‘lishi hamda realizm va mistika uyg‘unligi, tush va xotiraning badiiy talqini hamda haqiqat va illuziya chegaralarining yo‘qolishi kabi tamoyillar, ramziy obrazlar, metafizik makon va zamon tushunchalarining o‘ziga xosligi tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** Nazar Eshonqul, magik realizm, o‘zbek adabiyoti, tush va xotira, mistika, badiiy makon, zamon, metafizika.*

Очилов Улугбек Сайфуллоевич (доцент (PhD), Бухарский государственный университет; elnurbeast@gmail.com)

МАГИЧЕСКИЙ РЕАЛИЗМ В РАССКАЗАХ НАЗАРА ЭШОНКУЛА «ЧЕЛОВЕК, ВЕДОМОЙ ОБЕЗЬЯНОЙ» И «СВОБОДНЫЕ ПТИЦЫ»

***Аннотация.** В данной статье анализируются проявления магического реализма в рассказах Назара Эшонкула «Человек, ведомой обезьяной» и «Свободные птицы», а также такие принципы, как синтез реализма и мистики, художественная интерпретация сна и памяти, исчезновение границ между реальностью и иллюзией. Рассмотрены символические образы, своеобразие понятий метафизического пространства и времени.*

***Ключевые слова:** Назар Эшонкул, магический реализм, узбекская литература, сон и память, мистика, художественное пространство, времени, метафизика.*

Ochilov Ulugbek Sayfulloyevich (Associate Professor, PhD, Bukhara State University; elnurbeast@gmail.com)

MAGICAL REALISM IN NAZAR ESHONQUL'S SHORT STORIES "THE MAN LED BY A MONKEY" AND "FREE BIRDS"

***Annotation.** This article analyzes the manifestations of magical realism in Nazar Eshonqul's short stories "The Man Led by a Monkey" and "Free Birds", as well as the principles of combining realism and mysticism, the artistic interpretation of dreams and memory, and the blurring of boundaries between reality and illusion. It also examines symbolic imagery and the unique aspects of metaphysical space and time concepts.*

***Keywords:** Nazar Eshonqul, magical realism, Uzbek literature, dream and memory, mysticism, artistic space, concept of time, metaphysics.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy o‘zbek adabiyotida magik realizm yetakchi badiiy usullardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Bu oqimda realizm va mistik elementlar uyg‘unlashib, voqelik va xayol orasidagi chegaralar yo‘qoladi. Magik realizm janri Gabriel Garsiya Markez, Xulio Kortasar, Haruki Murakami kabi jahon adabiyotining yetuk vakillari ijodida muhim o‘rin tutgani kabi, o‘zbek adabiyotida ham bu uslubning o‘ziga xos talqinlari mavjud. Xususan, Nazar Eshonqul asarlarida magik realizm inson ruhiyatining ichki kechinmalari, tarixiy xotira va falsafiy mushohada bilan bog‘lanib, o‘ziga xos badiiy-estetik hodisa sifatida shakllangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘zbek adabiyotida magik realizmning namoyon bo‘lishi, ayniqsa, Nazar Eshonqul ijodida, real va irreal tasvirlarning uyg‘unlashuvi orqali badiiy-estetik hodisa sifatida shakllanadi. Yozuvchining «Maymun yetaklagan odam» va «Ozod qushlar» hikoyalari ushbu uslubning yorqin namunalaridan biri bo‘lib, bu asarlarda realizm va fantastika, hayotiy haqiqat va mistik tafakkur, an‘anaviy tasvir va surrealistik obrazlar o‘zaro bog‘lanadi.

«Maymun yetaklagan odam» hikoyasida voqealar realistik asosga qurilgan bo‘lsa-da, undagi majoziy maymun obrazi jamiyatning murakkab tuzilishini aks ettiradi. Hikoyada asosan real hayot voqealari tasvirlansa-da, syujet o‘qigan sari inson ongi va jamiyatning botiniy qirralarini ochib beruvchi g‘ayritabiiy holatlar bilan boyitilgan. Masalan, hikoya qahramoni bo‘lgan cholning ijodiy faoliyati va uning fojiali oxiri, tasviriy san‘at orqali hayotga bo‘lgan munosabati, uning ruhiy inqirozi mistik tus oladi [1;134–138 p.]. Ushbu yondashuv orqali yozuvchi jamiyatdagi axloqiy buzilishlar, insonning o‘zligini anglash jarayoni va ijodiy mehnatning qadrsizlanishini badiiy vositalar bilan ifodalaydi. «Ozod qushlar» hikoyasida esa real va irreal tasvirlar yanada yaqqol ifodalangan. Asar qahramoni Ozodning ramziy sayohati davomida u duch keladigan obrazlar – shamol, humo, taqdir lolasi va turli g‘ayritabiiy timsollar inson tafakkurining cheksizligini ko‘rsatadi. Bu yerda adib insonning o‘zligini anglash jarayonini o‘ziga xos tarzda tasvirlaydi [2;45-b.].

«Maymun yetaklagan odam» hikoyasida mavjud bo'lgan ramziy suratlar tahlili ham magik realizm elementlarini ochib berishga xizmat qiladi. Hikoyadagi suratlar turli yillarga oid tarixiy bosqichlarni aks ettirgan bo'lsa-da, ulardagi ranglar va maymun obrazi realistik va irrealistik elementlarning birlashganini ko'rsatadi. Masalan, 1921-yil chizilgan suratdagi maymun ramzi tabiatni ifodalasa, 1957-yil chizilgan suratda u insoniyat taqdirining bir qismi sifatida tasvirlanadi [3;214-b.]. «Ozod qushlar» hikoyasida esa makon qahramonning ruhiy va falsafiy izlanishlarini aks ettiradi. Qahramonning tush va real hayot orasidagi chegara buzilib, u ramziy sayohat orqali o'zligini anglashga harakat qiladi. Humo, shamol va taqdir lolasi kabi timsollar bu jarayonni chuqurlashtiradi. Yozuvchi bu hikoyada realizm va xayolotning o'zaro uyg'unlashuvi orqali insonning ma'naviy va falsafiy o'sish jarayonini badiiy talqin etadi [2;96-b.].

Magik realizmning yana bir muhim jihati voqelikni illuziya bilan bog'lashdir. Nazar Eshonqul badiiy tafakkur orqali real va irreal tasvirlar uyg'unligini yanada kuchaytirib, hayot haqiqatining subyektiv talqinini yaratadi. Bu asarlarda haqiqat, ko'rinmas kuchlar, tush va xotira bir-biriga singib ketadi. Masalan, «Ozod qushlar» hikoyasida qahramonning shuurida kechayotgan kechinmalar uning tashqi hayoti bilan uyg'un ravishda berilib, tasavvufiy yondashuv bilan boyitiladi [1;141-b.]. Shu sababli hikoyada realistik tafsilotlar bilan falsafiy-mistik qirralarning uyg'unligi kuzatiladi. Badiiy makon va vaqt tushunchalari ham ushbu uyg'unlikni kuchaytiradi. «Maymun yetaklagan odam» hikoyasida vaqt chiziqli emas, aksincha, assotsiativ tarzda rivojlanib, qahramonning shaxsiy kechinmalari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. «Ozod qushlar» hikoyasida esa vaqt ramziy xarakter kasb etib, voqealar zamon chegaralarini buzib, ma'naviy yuklash yo'lidagi bosqichlarni aks ettiradi [2;90-b.].

Adabiyot inson tafakkurining eng yuksak ifodasi sifatida madaniyat va falsafaning mujassamlanish maydonidir. Milliy madaniyat badiiy ijodda har xil shakllarda namoyon bo'lib, falsafiy yondashuvlar orqali uning mazmuni chuqurlashadi. Milliy adabiyotning rivojlanish jarayonida turli falsafiy oqimlar, mifologik tasavvurlar va milliy o'ziga xoslik badiiy talqinning muhim jihatlari sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, o'zbek adabiyotida madaniy meros, falsafiy izlanishlar va badiiy tafakkur uyg'unligi milliy adabiy makonning shakllanishida asosiy o'rin tutadi [4;34-b.].

Sharq falsafasida dunyoqarash va inson tabiatiga oid qarashlar adabiy asarlarga singdirilgan bo'lib, bu jarayon milliy adabiyot rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy madaniyat va falsafiy yondashuvlarning badiiy talqini adabiyotning eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, bu jarayon tarixiy xotira, xalq og'zaki ijodi va falsafiy izlanishlarning sintezidan iboratdir. O'zbek adabiyotida bu jarayon turli uslublar, poetik obrazlar va badiiy timsollar orqali namoyon bo'lib, Eshonqul ijodida magik realizm elementlari bilan uyg'unlashgan holda o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida adabiy-tahliliy yondashuv hikoyalardagi magik realizm elementlarini o'rganish va ularning badiiy-estetik vazifasini aniqlash; falsafiy va psixologik tahlil – inson ongi va ruhiy jarayonlarga mistik tasvirning ta'siri, tush va xotiraning qahramonlar hayotidagi o'rni; qiyosiy tahlil – hikoyalarni jahon va o'zbek adabiyotidagi magik realizm namunalari bilan solishtirish; narrativ tahlil – asarlardagi vaqt va makon tushunchalarining chiziqli emasligi, tush va haqiqatning o'zaro uyg'unlashuvi, hauntologiya (xayoliy xotira) elementlarining badiiy ifodasi tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Nazar Eshonqulning «Maymun yetaklagan odam» va «Ozod qushlar» hikoyalarida magik realizm turli badiiy vositalar orqali o'z ifodasini topgan. «Maymun yetaklagan odam» hikoyasi realizm bilan mistikaning o'ziga xos uyg'unlashgan namunasidir. Asardagi maymun obrazi oddiy hayvon timsolidan chiqib, inson ruhiyati va jamiyatning ma'naviy inqirozini aks ettiruvchi ramzga aylanadi. Qahramonning tush va haqiqat orasidagi tafakkur jarayoni mistik hodisalar orqali namoyon bo'lib, hikoyada realistik tasvir irreal elementlar bilan qorishib ketadi. Maymunning turli suratlarda aks etishi esa vaqt va makon tushunchalarining nisbiyligini anglatadi.

«Ozod qushlar» hikoyasi esa insonning ruhiy yuksalish jarayonini metafizik jihatdan aks ettiruvchi badiiy obrazlar bilan to'yingan. Asardagi humo, shamol va taqdir lolasi kabi ramzlar inson ma'naviy izlanishlarini, haqiqat va illuziyaning qorishib ketishini ifodalaydi. Qahramonning ramziy sayohati davomida u real va irreal dunyo o'rtasida harakatlanib, o'zining ichki olami bilan yuzlashadi. Hikoyadagi vaqt tushunchasi ham mistik xarakterga ega bo'lib, qahramon real voqealar ichida bo'lishiga qaramay, u vaqt va makon chegaralaridan chiqib ketadi.

Eshonqulning ushbu hikoyalarida xotira va tush motivlari ham magik realizmning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tush va xotira inson ruhiyatining tub qatlamlarini ochib beruvchi vosita sifatida tasvirlanadi. Hikoyalarda tushlar shunchaki orzu yoki illuziya emas, balki haqiqatning o'ziga xos badiiy talqini bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, xotira motivi ham vaqt tushunchasining buzili-

shiga sabab bo'ladi. Qahramonlar o'tmish voqealarini shunchaki eslab qolmaydilar, balki ularni qayta yashaydilar. Magik realizm unsurlarini Bata va Markez kabi yozuvchilarning ijodi bilan taqqoslaganda, Eshonqul hikoyalari bu uslub sharqona badiiy tafakkur, tasavvufiy dunyoqarash va milliy mentalitet bilan uyg'unlashgani kuzatiladi. Shuningdek, haqiqat va illuziyaning o'zaro bog'liq holda tasvirlanishi, tarixiy xotiraning subyektiv talqini ham ushbu hikoyalarning magik realizm estetikasiga mos kelishini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Nazar Eshonqulning «Maymun yetaklagan odam» va «Ozod qushlar» hikoyalari o'zbek adabiyotida magik realizm uslubining yorqin namunalari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu hikoyalarda realizm va mistika o'zaro chatishib, inson ruhiyatining sirli jihatlari ochib berishga xizmat qiladi. «Maymun yetaklagan odam» hikoyasida inson tafakkurining ichki jarayonlari tush va xotira orqali yoritilib, realizm va mistik tasvir uyg'unlashadi. Maymun obrazi inson tafakkuri va jamiyatdagi inqirozning ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi. «Ozod qushlar» hikoyasida insonning ma'naviy o'sishi va ichki sayohati magik realizm estetikasiga mos holda ifodalanadi. Eshonqul ijodida magik realizmning o'zbek adabiyotiga moslashtirilgan shakli kuzatiladi. Bu uslub xalq og'zaki ijodi, mifologik tasavvurlar, tasavvufiy g'oyalar va postmodernistik yondashuvlar bilan uyg'unlashib, milliy adabiy tafakkurning yangi bosqichini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). To'laganova, D. Badiiy tasvir vositalari va ularning semantik xususiyatlari. "Global ta'lim" jurnali, 2023, p. 134–138.
- (2). Eshonqul, N. Ozod qushlar. T., G'afur G'ulom NMIU, 2017, p. 45–49.
- (3). Sayfullayeva Sh. Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi tahlili. Journal of New Century Innovations, 2023, p. 214.
- (4). Nazarov, B., Rasulov, A., Qahramonov, Q. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012, p. 34.
- (5). Очилов У.С. Абдулла Қодирий ва Теодор Драйзернинг асарларида натурализм тамойиллари. Editorial board, 2022, T., 650-bet.
- (6). Очилов У. Stiven Kingning "Doktor uyqu" asarida mistik va real dunyo o'rtasidagi chegaralar. Лингвоспектр, 2025, T. 1, 1-son, c. 31–36.
- (7). Очилов У. Magik realizmning «It» asarida real va mistik dunyolar o'rtasidagi chegaralar. Лингвоспектр, 2025, 2-t, 1-son, c. 145–148.

Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li (TDIU Samarqand filiali dotsenti)

KULGI-HAJVNING ESTETIK IMKONIYATLARI VA JAMIYAT DEMOKRATIK TAFAKKURINI RIVOJLATIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada kulgi-hajvning estetik imkoniyatlari va jamiyat demokratik tafakkurini rivojlantirish ahamiyati hamda zamonaviy obraz yaratish, kinokomedianing boshqa san'at turlari bilan uzviy bog'lanishi, teatr sahna asarlarida milliy taraqqiyotga to'siq bo'layotgan turli ijtimoiy illatlarni satirik ko'rinishda fosh qilish orqali tomoshabinlarga ijtimoiy muammolarni bartaraf etishni, o'z maqsadlaridan og'ishmay yuksalishni, ularning kelajak haqidagi umidi, ertangi kunga ishonchini mustahkamlash va badiiy xususiyatlari turli tadqiqot ishlarining alohida obyekt sifatida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: teatr va kino san'ati, hajviylik, estetik tafakkur, go'zallik, xursandchilik, vaqtichog'lik, zavqlanish, maqsad, farovonlik, estetik faoliyat, badiiy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-madaniyat, estetik did, hazil, satira.

ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЮМОРА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ОБЩЕСТВА

Аннотация. В статье исследуются эстетические возможности юмора и значение для развития демократического мышления общества, а также создания современного образа, неразрывная связь кинокомедии с другими видами искусства, способность театральных пьес сатирически обличать различные общественные пороки, препятствующие национальному развитию, помогать зрителям преодолевать социальные проблемы, подниматься, не отступая от своих целей, укреплять в них надежду на будущее, уверенность в завтрашнем дне, а также их художественные характеристики как отдельного объекта различных исследовательских работ.

Ключевые слова: театральное и киноискусство, юмор, эстетическое мышление, красота, радость, досуг, удовольствие, цель, благополучие, эстетическая деятельность, художественные ценности, национальные ценности, социокультура, эстетический вкус, юмор, сатира.

Davletova Shoxida Bazarbayevna	Murakkab kiritmalar sintaktik-stilistik kategoriya sifatida	172
Akramova Diyora Xaytboy qizi	Kasb-hunar va mehnatga oid leksemalarda evfemizmlar-ning ishlatilishi	175
Xoljo'rayeva Maftunabonu	O'zbekcha-inglizcha ijtimoiy-siyosiy terminlarning sin-taktik tahlili	178
Yuldashev Jo'rabek Uralovich	Karmana tumani etnooykonimlari	181
Homidova Barnoxon Sadriddin qizi	Badiiy matnni tahlil qilishda qiyoslash metodining im-koniyatlari	184
Nabijonova Madinabonu	Erkin Vohidov she'rlarida frazeologizmlarning lingvo-poetik xususiyatlari	188
Adambayeva Shahnoza	Fransuz va o'zbek tillarida "ayol" konseptining lisoniy tahlili	191
Absalamova Gulmira Sharifovna	Mishel Montenning "Les Essais" asarida fransuz adabi-yotshunoslik terminlarining stilistik-funksional talqini va lingvokulturologik yuzaga chiqishi	195
Raxmonova Iroda	Ingliz tilshunosligida frazeologizmlarni o'rganish bos-qichlari: nazariy, metodologik va amaliy asoslari	197
Xoliqova Nasiba	O'zbek xalq maqollarida gapning bosh bo'laklarining sintaktik xususiyatlari	199
Esanova Maysara Abdullayevna	XIX asr ikkinchi yarmidagi adabiy-madaniy hayot va Miriy	202
Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich	Nazar Eshonqulning «Maymun yetaklagan odam» va «Ozod qushlar» hikoyalarida magik realizm	206
Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li	Kulgi-hajvning estetik imkoniyatlari va jamiyat demok-ratik tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati	208
Xasanova Mashxura Jumanovna	Qasidalarda tong tasviri	211
Sarsenbaev Konisbay Jaksilik uli	To'lepbergen Qayipbergenov povestlarida badiiy so'zdan foydalanishning o'ziga xosligi	215
Usmonova Oydin Sherali qizi	"Masnaviy" bog'chasidan bir ko'za suv	217
Nabiyev Maxsud Abdimannonovich	Iqtisodiy madaniyat tushunchasi va uning falsafiy talqini	221
Usenov Jiyengaliy	"Jaslar" tushinigi ham onin qaliplesiw tariyxinan	223
Тошполатова Ширин Мухиддиновна	Законодательная база этики государственных гражданских служащих в республике узбекистан	225
Тожибоева Шахзода Аъзамжон кизи	Типология метафор в прозе Рэя Брэдли: когни-тивный и лингвостилистический аспекты	228
Аметова Мухаббат Оразымбетовна	Каримбай Курамбаев — исследователь тюркских литературных связей и деятель культуры	231
Sodikova Shokhistakhon Bakhodir qizi	Theoretical Foundations of Euphemisms and Their Importance in the Medical Field	233
Turakulova Dilafruz Mamatsoli qizi	The Semantics of Epistemic Modality: Evaluating Knowledge, Probability, and Certainty	238
Ziyadullaev Ilhom Oblakulovich	Phraseo-neologisms in the german language	243